



## **“O’SIMLIKLAR BIOXILMA-XILLIGINI MUXOFAZA QILISH - DAVR TALABI”**

**X.K. Karshibaev - Guliston davlat universiteti “Dorivor  
o’simliklar va botanika» kafedrası professori, O’zR da  
xizmat ko’rsatgan yoshlar murabbiysi**






- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60 son farmoni va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining «1992 yilda Rio-de-Janeyroda imzolangan Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konventsiyaga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida» 1995 yil 6 maydagi 82-I-son qarorini ijro etish yuzasidan kompleks chora-tadbirlari asosida qator ishlar amalga oshirilmoqda.



# Vazirlar Mahkamasi tomonidan

**“2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarori qabul qilindi**

“2019 — 2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi”da biologik xilma-xillikni saqlash va undan barqaror foydalanishni ta’minlash, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni rivojlantirish va kengaytirish, hayvonlar va o‘simliklarning kamyob va yo‘qolib borayotgan turlarini qayta tiklashga qaratilgan ustuvor vazifalar amalga oshirilishi nazarda tutilgan.



**“2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” qarorida quyilgan vazifalar:**

- muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar maydonlarini mamlakat hududining 12 foiziga etkazish;
- Orol dengizining qurigan tubida o‘rmonzorlashtirish ishlarini olib borish, uning maydonini 1, 2 million gektarga etkazish;
- Buxoro ixtisoslashtirilgan «Jayron» pitomnigida jayronlar bosh sonini 1000 ga etkazish;
- davlat qo‘riqxonalaridagi etalon ekotizimlarda bioxilma-xillik komponentlari uchun monitoring olib borishning markaziy bo‘g‘inli yagona tizimini yaratish;



**2019-2028 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"** qarorida quyilgan vazifalar:

- zamonaviy geoaxborot texnologiyalari (GIS-texnologiyalar) asosida bioxilma-xillikning davlat monitoringi va davlat kadastri yagona axborot ma'lumotlar bazasini yaratish;
- har yili 2 mln gektar maydonda tabiiy yaylovlar va pichanzorlardagi o'simliklarni geobotanik tekshiruvdan o'tkazish;
- bioxilma-xillikni saqlab qolish masalalarini iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga integratsiyalash;



## Harakatlar rejasi:

“2019 — 2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasi biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi“ da qayd etilgan ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida **23 banddan iborat Harakatlar rejasi** tasdiqlangan. Harakatlar rejasining 9 ta bandi bevosita o‘simliklar dunyosiga tegishli bo‘lib, ularning eng muhim bandlarini taxlil qilib chiqamiz:





1.O'simlik dunyosi monitoringini tashkil qilish va amalga oshirish tartibini belgilab beruvchi biologik xilma-xillik komponentlarining yagona monitoringini olib borish **tizimini yaratish.**

2. Zamonaviy geoaxborot texnologiyalari (**GIS-texnologiyalar**) asosida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, o'simlik dunyosi ob'ektlari davlat kadastri va monitoringi bo'yicha ma'lumotlar axborot bazasini yaratish.





3. Yagona davlat kadastrlari tizimining talablariga muvofiq muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, o'simlik dunyosi ob'ektlarining kadastrini yuritish ishlarini takomillashtirish.

4. Yovvoyi holda o'suvchi dorivor, oziq-ovqatbop va texnik o'simliklar turlarining tabiiy zaxiralarni xatlovdan o'tkazish





5. Yiliga 2 mln ga maydonda tabiiy yaylovlar va pichanzorlardagi o'simliklarni geobotanik o'rganib chiqish.

6. Orol dengizining qurigan tubida o'rmon-meliorativ ishlarni amalga oshirish yo'li bilan Orolbo'yini ekologik sog'lomlashtirish.





7. Tog'li joylarda va to'qayzorlarda cho'l hududlarning o'rmon bilan qoplanishini, suv to'planadigan havzalarni ko'paytirish.

8. Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish.

9. Madaniy o'simliklar ko'payishini tiklash maqsadida ularning yovvoyi ajdodlari genofondini saqlashni ta'minlash.







- Guliston davlat universiteti botanik olimlari tomonidan 70 dan ortiq turlarining tabiiy va dastlabki introduktsiya sharoitida ekobiologik xususiyatlari, reproduktsiya jarayoni, ko'payish yo'llari va urug'dan tiklanish masalalari chuqur tadqiq etildi.



- Jumladan Respublikamizning Jizzax, Sirdaryo va Toshkent viloyatlari cho'l va adir hududlarida tarqalgan ayrim turlarning tsenopopulyatsiyalari holatlari monitoring qilindi





- Tekshirish natijalariga ko'ra adir va cho'l mintaqalaridagi qishloqlar atrofida chorva mollarini me'yor talablaridan oshiqroq boqilishi tufayli tabiiy fitotsenozlarga o'ta salbiy ta'sir kursatilayotganligi aniqlandi.
- Ayniqsa, cho'l va adir yaylovlaridagi tabiiy o'simlik tsenopopulyatsiyalarda generativ bosqichga kirgan individlar miqdori 0,7-3,1 % ni, ayrim qimmatli yom-xashak turlarda ushbu ko'rsatgich 0,2-0,3 % ni tashkil qilayotganligi nihoyatda tashvishli holdir.




- Botaniklar oldida turgan dolzarb muammolardan biri inqirozga uchragan tabiiy yaylovlarni qayta tiklash, ya'ni rekultivatsiya qilishni amalga oshirish masalasidir. O'simliklar rekultivatsiyasi, ya'ni o'simliklarni tabiiy fitotsenozlarda qaytadan tiklashga erishish hozirgi kun botanika fani oldida turgan muhim dolzarb vazifalardan hisoblanadi.





Ushbu sohadagi ishlar Respublikamizda endi boshlanmoqda. Bu masala Harakatlar dasturida keltirilgan har yili 2 million ga tabiiy yaylovlarni geobotanik taxlil qilib chiqish ishlari bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Bu ulkan vazifani bajarishda O'z FA Ilmiy tadqiqot institutlari va Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan botanik olimlarning keng qatlami ishtirok etishlari lozim.





Cho'l va adir mintaqalarida  
yo'qolib ketish arafasida  
turgan kamyob foydali turlar  
monitoringini tashkil qilish,  
ularning urug'larini terish va  
maxsus genbanklarda  
saqlashni joriy etish, dorivor  
va em-xashak beruvchi  
o'simlik turlarni  
introduktsiya qilish  
sohasidagi ishlarimizni ham  
yanada kuchaytirish talab  
etiladi.





Chunki yovvoyi holda o'suvchi  
foydali o'simliklar resurslarini  
baholash va yo'qolish arafasiga  
kelib qolgan turlardan  
foydalanishni qisqartirish  
maqsadida Harakatlar rejasida  
Respublikamizning **turli**  
**mintaqalarida ularning**  
**plantatsiyalarini tashkil etish**  
masalalarini amalga oshirish  
zarurligi ko'rsatilgan, bu esa  
ushbu turlar introduktsiyasi  
bilan bog'liqdir.





# O'simliklarni introduksiya qilish

Mirzacho'l florasi hozirgi kundagi tarkibi va uning resurslari tug'risidagi ma'lumotlar etarli emas. Botanika institutining ma'lumotlariga qaralganda Sirdaryo daryosi vodiysining o'simlik turlari ro'yxati 58 oila tegishli 395 tur iborat. Ular orasida uchta etakchi oila vakillari (Chenopodiaceae— 64, Brassicaceae— 62, Asteraceae -55) ustunlikka egadir..





## O'simliklarni introduksiya qilish

Sirdaryo o'zanida tarqalgan o'simliklar orasida 188 tur foydali xususiyatlarga ega ekanligi qayd etilgan. Shundan 177 tur yoki Sirdaryo daryosi vodiysi florasida o'rganilgan turlar umumiy sonining 45% ini em-xashak o'simliklari guruhi tashkil etadi.





# O'simliklarni introduksiya qilish

**Poaceae** oilasi (32 tur – em-xashak o'simliklar guruhining 41,6 % ):

*Achnatherum splendens* (Trin.)

Nevski, *Aeluropus littoralis*(Gouan.)

Parl., *A. repens* (Desf.) Parl.,

*Agropyron fragile* (Roth.) R.

Candargy, *Agrostis gigantea* Roth.,

*Alopecurus arundinaceus* Poiryu.,

*Avena fatua* L., *Poa bulbosa* L., *P.*

*Pratensis* L. va boshqalar,





# O'simliklarni introduksiya qilish

**Chenopodiaceae** (19 tur– 24,7 %):

*Agriophyllum squarrosum* (L.) Moq.,

*A. salsa* (C.A. Mey.) Benth., *Atriplex*

*tatarica* L., *Camphorosma*

*monsreliaca* L., *Slimacoptera*

*brachiata* (Pall.) Botsch., *S. crassa*

(M. Bieb.) Botsch., *Kochia scoparia*

(L.) Schrad., *Nanophyton erinaceum*

(Pall.) Bunge, *Salsola kali* L., *S.*

*orientalis* G. Gmel. va boshqalar,





## O'simliklarni introduksiya qilish

**Fabaceae** (13 tur– 16,9 %):

*Astragalus brachypus* Schrenk, *A.*

*Lehmannianus* Bunge, *A.*

*orbiculatus* Ledeb., *A. secamoides*

Boiss., *A. vulpinus* Willd.,

*Nalimodendron halodendron* (Pall.)

Voss, *Medicago lupulina* L.,

*Melilotus albus* Medik,

*Sphaerophysa salsula* (Pall.) DC.,

*Trigonella arcuata* C. A. Mey.,

*Trifolium fragiferum* L. va

boshqalar. Ushbu oila vakillari

Sirdaryo o'zani atrofida o'sayotgan

em-xashak o'simliklarning 83,2 %

tashkil qiladi





# O'simliklarni introduksiya qilish

- Rus olimi N.I. Vavilov o'simliklar introduktsiyasining ijobiy natija berishi bashoratlash masalasida o'tkaziladigan eksperimental tajribalar asosiy o'rin egallashini qayd etadi. O'simlikning ma'lum sharoitga moslashuvi va assosatsiyasida ekologik tabaqalashuvi ko'pincha juda konservativ belgilarga ega bo'lib, bu turning uzoq vaqt mobaynida kam o'zgargan muhitda rivojlanishi natijasida paydo bo'ladi. Bunga yaqqol misol sifatida suv havzalari, sho'rxoklar, qumliklar o'simlik turlarini keltirish mumkin.





## O'simliklarni introduksiya qilish

Dorivor o'simliklar guruxi 73 turdan iboratdir. Bu o'rinda bizning hududlarimizda ham keng tarqalan *Glycyrrhiza glabra* L. turi alohida o'ringa egadir. Qo'shni Qozog'iston sharoitida uning bioekologiyasi va tabiiy zaxiralari kompleks holda o'rganilgan. Bizning Viloyatda ham ushbu turga doir ayrim ishlar e'lon qilingan.

- Em-xashak o'simliklar masalasiga kelsak ayrim ilmiy tadqiqot ishlari ma'lum.





## O'simliklarni introduksiya qilish

Hozirgi kunda Mirzacho'l hududida *Glycyrrhiza glabra* dan tashqari *Lycium*, *Crocus*, *Sorghum* va boshqa turkum vakillari introduktsiya qilinmoqda. Introdutsent sifatida birinchi turkumdan *Lycium barbarum* va *L. shinense* turlari olingan. Ma'lumki *Lycium* turkumi Solanaceae (ituzumdoshlar) oilasiga mansub bo'lib, asosan Amerika, Afrika va Evroosiyoning mo'tadil subtropik, tropik minataqalarida keng tarqalgan. Ilmiy manbalarda *Lycium* turkumi tarkibida 90 ortiq turlar mavjudligi qayd etilgan. Bir qancha turkum vakillari sho'rlangan tuproqlarda ham o'sishga moslashganligi keltirilgan.





## O'simliklarni introduksiya qilish

Sirdaryoning o'rtacha sho'rlangan tuproqlarida introdutsent sifatida o'stirilayotgan *L. barbarum* (oddiy ching'il, oddiy dereza, bo'ri mevasi) va *L. shinense* (Xitoy ching'ili, Tibet kiparisi) ko'p yillik bargi to'kiladigan shoxlangan buta, balandligi 1.5 -2.5 m baland etadi. Ching'ilning *L. depressum*, *L. ruthenicum*, *L. dasystemum* va qisman *L. barbarum* turlariga o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar o'tkazilgani va ishlab chiqarishga tavsiya qilingan.





# Xulosalar:

- Ma'lumki, introduktsion tadqiqotlar floradagi o'simliklar tarkibini va genofondini kengaytirish hamda inson uchun kerakli bo'lgan o'simlik turlarini tanlab olish imkoniyatini beradi. Shu jihatdan dorivor va foydali o'simliklar introduktsiyasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni yanada kengaytirish tug'risidagi takliflar muhim ahamiyatga egadir.





# Xulosalar:

- Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Chirchiq va Ohangaron daryolari bo'ylab joylashgan to'qayzorlar qisqarishi oldini olish, mavjudlarini saqlab qolish masalalarini tezda qayta ko'rib chiqish lozim. Bu masala bioxilma-xillikni saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega.





# Xulosalar:

O'simliklar bioxilma-xilligini saqlashda zamonaviy GIS-texnologiyalarga asoslangan muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, o'simlik dunyosi ob'ektlari davlat kadastri va monitoringini olib borish hamda rekultivatsiya sohasida o'tkaziladigan tadqiqotlarni ko'lamini yanada chuqurlashtirish orqali O'zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasi Harakatlar rejasida keltirilgan vazifalarni to'liq bajarishga erishish mumkin.





# Adabiyotlar:

- I.A.Karimov: “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. Toshkent. O‘zbekiston nashriyoti. 1997 yil, 160-bet.
- B.Y.To‘xtaev, E.B.Shakarboev: “O‘zbekistonda bioxilma-xillikni o‘rganishning hozirgi holati va istiqboldagi yo‘nalishlari.//O‘simliklar introduktsiyasi: yutuqlari va istiqbollari”. Toshkent – 2013 yil, 3-9 bet.
- B.Y.To‘xtaev, R.X.Allaberdiev: “Botanika bog‘i – O‘zbekistonda o‘simliklar genofondini saqlash va boyitishga yo‘naltirilgan ilmiy maskan”//O‘simliklar introduktsiyasi: yutuqlari va istiqbollari. Toshkent – 2013 yil, 10-12 bet.
- “Barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik”. Ma‘ruzalar matni. Farg‘ona 2009-y, 21-22, 43-46 bet.



# Adabiyotlar:

- “Biologik xilma-xillikni saqlash milliy strategiyasi va harakat rejasi”. Toshkent 1998-y, 28-32 bet.
- J.T.Xolmo’minov va boshqalar: “Ekologiya huquqi”. O’zbekiston Respublikasi IIV. Toshkent 2014 yil, 21-24, 196-200 bet
- D. Yormatova: “Ekologiya”. Toshkent 2012 yil, 65-69, 189-190, 221-236 bet.

## Elektron manbalar:

- [www.nature.uz](http://www.nature.uz)
- [www.econews.uz](http://www.econews.uz)
- [www.google.ru](http://www.google.ru)
- [www.ziyonet.ru](http://www.ziyonet.ru)
- [www.Gazeta.uz](http://www.Gazeta.uz)
- [www.Uzreport.uz](http://www.Uzreport.uz)



E'tiboringiz uchun  
raxmat!

